

TALAFFUZIDA KAMCHILIGI BO'LGAN BOLALARDA NUTQ  
NUQSONLARI

**Qahramonova Zebuniso Raufjon qizi**

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti Defektologiya yo'nalishi  
1-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talaffuzida kamchiligi bo'lgan bolalarda nutq nuqsonlari, sabablari, uni aniqlash yo'llari va turlari haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** nutq, tovush, talaffuz, fonema, un paychalar, undosh tovushlar, nutq kamchiliklari, duduqlanish, differensial, shovqin, buzilish, artikulyatsion mashqlar, tanglay, etiologiya, layoqat, psixonevrolog.

Nutq tovushlari –talaffuz etiladigan so'zning kichik, ayrim bir qismidir. Tovushni fonemadan farq qilmoq kerak. Fonema so'z ma'nolarini ifodalash va farqlash uchun xizmat qiladigan nutq tovushidir.

Ovoz va shovqinning ishtirok etish darajasiga ko'ra tildagi fonemalar ikkiga bo'linadi: unli fonemalar va undosh fonemalar. Unli fonemalar un paychalarining tebranishi bilan paydo bo'ladi. Unli tovushlarni talaffuz qilganimizda, o'pkadan chiqadigan havo oqimi og'iz bo'shlig'ida biror to'siqqa duch kelmasdan chiqadi.

Undosh tovushlar unli tovushlardan quyidagicha farq qiladi: undoshlar og'iz bo'shlig'ida paydo bo'ladi va shovqindan iborat bo'ladi yoki ularda qisman shovqin qatnashadi; undoshlarning talaffuzida o'pkadan chiqadigan havo oqimi bo'g' izdagi un paychalarini ba'zan titratib, ba'zan titratmay o'tadi; og'iz bo'shlig'idagi a'zolarining to'sig'iga duch keladi, buning natijasida havo oqimi portlab yoki sirg'alib chiqadi; undoshlarni, odalda, cho'zib talaffuz etib bo'lmaydi, unilarni esa istagancha cho'zib aytilish mumkin.

Noto'g'ri talaffuz nutq kamchiligi haqidagi birinchi ma'lumotlar qadimgi grekolimlari Plutarx, Gippokrat, Kladiya, Galen va boshqalarning ishlarida bayon qilindi. Yuqoridagi mualliflar noto'g'ri talaffuzni davolashni talab qiluvchi kasallik deb qaraydilar. Ularning fikricha, tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish til, lab, qattiq va yumshoq tanglayning zararlanishi bilan bog'liq deb ko'rsatadilar.

O'rta asrga kelib, dislaliya haqida yangi fikrlar paydo bo'lmay, qadimgi davr ilmiy g'oyalari takrorlanadi.

Tarixning keyingi davrlarida (ya'ni, 16-18- asrlarda) italyan professori Merkurialis (1588), nemis fiziologi Alberxt Fon Gallerning ishlari paydo bo'ldi. Ular ham tili chuchuklikni (dislaliyani) periferik nutq apparati tuzilishidagi

kamchiliklar natijasi deb qaraydilar. Merkurialis bu kamchilikni davolash usulining eng mosi deb xirurgik terapiya deb hisoblaydi. Galleresa talaffuzdagi kamchiliklarni mashqlar orqali davolash fikrini ilgari suradi. Keyinchalik bu fikr fransuz aktyori J.Talma (1764—1836) ishlarida ham o'z aksini topadi. Shunday qilib, XIX asrgacha tili chuchuklikning mohiyatini artikulyatsion organlar ishida mexanik buzilishlariga bog'lab o'rganishlar. Chunonchi, bu davrlarda tili chuchuklik "duduqlanish" deb nomlanuvchi nutq buzilishining umumiy guruhidan ajratilmagan edi. Nutqdagi talaffuz kamchiliklarini ilmiy tasnif birinchi urinishlar XIX asrning boshlarida boshlandi.

Keyinchalik nutqning tovush tomonidagi kamchiliklar ustida Rossiyada A. Andres, Fransiyada Leguve Sherven, Germaniyada G.Gutsmanfaff ishildilar. Tovush buzilishlarining xarakteri haqidagi fikrlarning rivojlanishida rus va chet el lingvistlarining, psixolog va fiziologlarning hissi katta bo'ldi: V.A. Bogoroditskiy (1909), L.V. Herbn (1912), D.P. Yenko (1913), Boduen (1971), A.A. Shaxmalov (1915), L.V. Varshavskiy, I.M. Litvak (1935), N. I. Jinkin (1958) va hokazo.

Tili chuchuklikning tabiatini o'rganish, uning xarakteri va mexanizmi jihatdan alohida turlarini ajratish, bu kamchilikni bartaraf etishning differensial usullarini ishlab chiqilishiga olib keldi.

XIX asr boshlarida tovushlartalaffuzidagi kamchiliklarni artikulyatsion mashqlar yordamida bartaraf etish rivojlandi (J.Telma 1817-y. Pualson 1892-y.).

"Dislaliya" terminini Yevropada birinchi bo'lib Vilnyus universitetining shifokori professor I.Frank ilmiy muomalaga kiritgan. 1827-yilda chiqqan monografiyada, u bu termini umumlashtirilgan ma'noda talaffuz buzilishlarining hamma turlarini turli etiologiyalarini nomlashda qo'lladi.

Dislaliya (dis –izdan chiqish, aynish, buzilish; laliya -nutq) tovushlarni noto'g'ri talaffuz etish yo'li bilan ifodalanadigan nutq nuqsonidir. Dislaliyada bolalar bir fonetik guruhdagi tovushlarni (monomorf displaliya) yoki har xil fonetik guruhdagi tovushlarni (polimorf displaliya) noto'g'ri talaffuz etishadi. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar nutq sistemasining boshqa tarkibiy qismlariga har xil darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ba'zi bolalarda talaffuz kamchiligi shunchaki, bir nuqson bo'lib, bola nutqining leksik, grammatik qismlarida, idrok etish layoqatida hech qanday kamchiliklar kuzatilmaydi. Biroq ko'p hollarda xattoki bittagina tovushning noto'g'ri talaffuzi ham nutq sistemasidagi leksik hamda Grammatik tomonlarga ta'sir ko'rsatadi, natijada bola tovushni noto'g'ri idrok etadi, o'xshash tovushlar bilan adashtiradi, yozish va o'qish paytida ham xatolarga yo'l qo'yadi.

Kelib chiqish sabablariga ko'ra dislaliya mexanik, funksional xillarga bo'linadi.

Nutq apparatining tuzilishidagi o'zgarishlariga aloqador talaffuz kamchiliklari mexanik dislaliyaga olib keladi, masalan, artikulyatsion apparat tuzilishdagi o'zgarishlar: tanglayning, yoriq, til tagidagi yuganchaning kalta bo'lishi, kichik (lak-luk) tilning ikkiga bo'linganligi manqalanib gapirish, sirg'aluvchi tovushlar, til oldi r-l sanor tovushlarning noto'g'ri talaffuz etilishiga sabab bo'ladi.

Kichik yoshdagi bolalarning nutq apparati yaxshi rivojlanmaganligi tufayli tovushlarni noto'g'ri talaffuz etish hollari juda ko'p uchraydi. Yoshi ulg'ayib artikulyatsion apparat rivojlanib borgan sayin bu nuqsonlar yo'qolib boradi.

Dislalik bolalarning qulog'i yaxshi eshitadigan bo'ladi, unda hech qanday kamchiliklar kuzatilmaydi. Nutqni fonematik jihatdan eshitish, ya'ni tovushlarni bir-biridan ajrata bilish layoqati esa rivojlanmagan bo'lishi mumkin.

Talaffuz buzilishlarni bartaraf etish uchun logopedik ta'sir lozim. Logopedik ta'sirning asosiy maqsadi, nutq tovushlarini to'g'ri shakllantirishdir. Nutq tovushlarini to'g'ri tiklash uchun bola quyidagilarni bilishi lozim: nutq tovushlarini bilishi va ularni idrokida aralashtirib yuborishi kerak emas bir tovushni ikkinchisidan akustik belgisi bo'yicha ajrata bilishi; normal talaffuz qilingan tovushdan noto'g'ri talaffuz qilingan tovushni ajrata bilishi; o'zi talaffuz qilgan tovushni eshitib nazorat qila bilishi va sifatini baholashi; tovushni normal effektini akustik effektini hosil qiluvchi artikulyatsion holatni bajara olishi; nutqning hamma turlarida tovushlardan o'rinli foydalanishi lozim. Logoped bolani to'g'ri talaffuzga o'rgatishi uchun nihoyatda samarali yo'l topishi lozim. To'g'ri tashkil qilingan logopedik ish dislaliyaning boshqa turlarida ham samarali natijaga erishadi. Mexanik dislaliyaning bir qancha hollarida logopediya va tibbiyotning birgalikda yondashishi natijasida samarali muvaffaqiyatlarga erishiladi. Logopedik ta'sirning muvaffaqiyatli shart-sharoitlari talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun yaxshi sharoitlar yaratib beradi: logopedning bola bilan emotsional kontakti; mashg'ulotlarni qiziqarli shaklda tashkil qilish va charchashga yo'l qo'ymaydigan ish tizimida olib borish.

Logopedik mashg'ulotlar haftasiga uch marta muntazam ravishda o'tkaziladi. Ota-onalar bilan birgalikda uy sharoitida ham mashg'ulotlar o'tkazilishi lozim (logoped topshiriqlari asosida). Mashg'ulotlarni har kuni (kuniga 2—3 marta) 5—15 minutdan o'tkazish lozim. Talaffuzdagi nuqsonlarni bartaraf etish uchun didaktik materiallardan keng foydalaniladi.

Logoped, mashg'ulot davomida, bola kerakli tovushni talaffuz qilish uchun to'g'ri vaziyatni egalladimi, yo'qmi tekshiriladi. Buning uchun logoped boladan to'g'ri vaziyatni egallagan holda nafas chiqarishini (qattiq puflashni) so'raydi. Kuchli nafas chiqarish natijasida intensiv shovqin hosil bo'ladi. Agarda shovqin kerakli tovushning (undoshning) akustik effektiga mos kelsa, vaziyat to'g'ri tanlangan bo'ladi. Agar bunday bo'lmasa, unda logoped boladan artikulatsion organ va ziyatini o'zgartirishini so'raydi (biroz ko'tarish, tushirish, tilni harakatlantirish) va yana puflatadi. Muvaffaqiyatli natijaga erishmaguncha bajartiriladi.

Nutq kamchiliklari, ayrim tovushlar talaffuzidagi yetishmovchiliklar yuqorida keltirib o'tilganlarning o'zi bilan tugamaydi. Boshqa tovushlar, bo'g'inar, hattoki so'zlar talaffuzidagi odat bo'lib qolgan boshqa kamchiliklar ham uchrab turadi. Biz shularning, nazarimizda muhim bo'lib ko'ringan xillari ustidagina qisqacha to'xtalib o'tdik. Asosiy vazifa nutq kamchiliklarini vaqtida payqab olib, shunday kamchiliklarni bog'cha yoki quyi sinflar sharoitlarida bartaraf etish choralarini ko'rish, ota-ona, tarbiyachilar va boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z imkoniyatlari bilan ularni bartaraf etolmaydigan hollarda esa logoped bolalarni tegishli muassasalarga – psixonevrolog va logopedlarga vaqtida yuborib, davolatishdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Raxmanova V.S. “Korreksion pedagogika va logopediya”. Toshkent “Iqtisod - Moliya” 2007;
2. M.Y. Ayupova “Logopediya”. Toshkent O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti 2007;
3. R.Shomaxmudova, L.R.Muminova. Bog'cha va kichik maktab yoshidagi bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni tuzatish. T., O'qituvchi, 1981
4. M.Fomichyova, K.Shodiyeva. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. T., O'qituvchi, 1984